



TIIAME

# Mavzu: Turkistonmuxtoriyati tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi  
Islamova S.



# O'tilgan mavzuni takrorlash



TILAME

- Muxtoriyatning ma'muriy markazi – bu...
- Muxtoriyat Bosh vazirlari – bu ...
- Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi – bu ...
- “Ulug’ Turkiston”
- Dashnoqlar



## Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati boshqaruv tizimining tuzilishi va iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar




TIIAME

- Bolsheviklar va so'l eserlar musulmon aholining o'lkanı boshqarishga bo'lgan qonuniy huquqini inkor qilib, hokimiyat to'g'risidagi masalani keli-shib hal qilish imkoniyatini yo'qqa chiqardi va shu bilan Turkiston siyosiy hayotida milliy va demokratik kuchlarning kelgusida muxolifatga o'tishini oldindan muqarrar qilib qo'ydi.
- Markazdagi bolsheviklar rahbarlik qilgan sovet hokimiyati chekka o'lka-lar, shu jumladan, Turkistonda ham "sovet avtonomiyasi" o'rnatishga qattiq kirishdi. Bu ishni bajarish uchun sovet Rossiysi poytaxti Moskvadan ko'plab partiya va sovet xodimlari Turkiston o'lkasiga yuborildi. Sovet hukumatining rahbari **V.I. Leninning** buyrug'i bilan bolshevik **Pyotr Kobozev** O'rta Osiyo- ning favqulodda komissari qilib jo'natildi.



TIAAME





TILAME



# Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi



TIIAME

- 1918-yil 20-aprel – 1-mayda Toshkentda Turkiston ishchi, soldat, krestyan, musulmon va dehqon deputatlarining V o'lka syezdi bo'lib o'tdi. Syezd depu-tatlari sovet Rossiyasi hukumati rahbarlari **V.I. Lenin va I.V. Stalin** ko'rsat- masi asosida 30-aprelda “Rossiya Sovet federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizom”ni qabul qildi. Ushbu nizom RSFSR tarkibida Turkistonda avtonom respublika – **Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi** (Turkiston ASSR) tuzilganligini e'lon qildi. Syezdda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti tuzildi va Turkiston ASSR Xalq Komissar-lari Sovetining yangi tarkibi tasdiqlandi



TIAME



# Markaz vakolatli organlarining Turkistondagi faoliyati hamda ularga qarshi milliy kommunistlar va Musulmonlar byurosining kurashi

- Markaz o'z siyosatini amalga oshirish uchun maxsus komissiyalar va byurolar (Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi va b.) tashkil qilib, ularni Toshkentga jo'natdi hamda ushbu vakolatli organlari orqali Turkiston ASSRni boshqarishga harakat qildi. Markazning bunday shovinistik va mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy kommunistlar va Musulmonlar byurosi faol kurash olib bordi.



# Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlari



TIIAME

- Turkistonda 1917-yil- ning qishida boshlangan ocharchilik bolsheviklarning qattol siyosati natijasida tobora kuchayib borgan. 1918-yil 20-noyabrda Turkiston ASSRda **T. Risqulov** raisligida ocharchilikka qarshi kurash **Markaziy komissiyasi** tuzilgan. Bi- roq komissiya ixtiyoriga sovet hukumati tomonidan tegishli miqdorda mablag' ajratilmagan. Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, Farg'ona vodiysiда 1917 – 1923-yillarda ocharchilik natijasida 1 mln kishi, Samarqand viloyatida 200 000 kishi o'lib ketgan.







© UIG via Getty Images





# “Harbiy kommunizm”dan yangi iqtisodiy siyosatga o’tilishi.



TIIAME

- Bolshe- viklar sovet hokimiyatining dastlabki davri (1918 – 1920)da yuritgan siyosati “**harbiy kommunizm**” deb nomlangan. Uning mohiyati quyidagicha bo’lgan. Butun sanoat ishlab chiqarishi davlat qo’lida jamlanib, qattiq markazlashti- rish asosida boshqarilgan; dehqonlar o’zi yetishtirgan mahsulotning ortiq- chasini davlatga topshirgan (oziq-ovqat razvyorstkasi, ya’ni taqsimoti); davlat esa oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini taqsimlashni o’z qo’liga olgan; bozor yo’qotilib pul muomalasi natura (mahsulotlar) bilan almashtirildi; mehnatga yaroqli barcha aholi majburiy mehnatga jalb qilindi (mehnat militarizatsiyasi)

# O'rta Osiyoda yer-suv islohoti birinchi bosqichining amalga oshirilishi

- Sovet hokimiyati tomonidan xususiy mulkni tugatish maqsadida O'rta Osiyoda yer-suv islohoti amalga oshirildi. U 2 bosqichdan iborat bo'lib, **1921-1922-yillarda** Turkiston ASSR va Qozog'iston ASSRda amalga oshiril- gan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar birinchi bosqichni tashkil qiladi.





# O'zingizni sinang!



TILAME

- Pyotr Kobozev – bu ...
- Musulmonlar byurosi – bu ...
- Turor Risqulov – bu ...
- TASSR hududi – bu ...
- 1917 – 1923-yillar – bu ...
- Yer-suv islohoti birinchi bosqichi – bu ...
- NEP – bu ...
- “Harbiy kommunizm” – bu ...



# Atamalar izohi!



TIIAME

**Pud** – 16,38 kg ga teng og‘irlik o‘lchov birligi.

**Desyatina** – (ruscha desyat – o‘n) metrik sistema qabul etilgunga qadar Rossiyada qo‘llangan, 1,09 gektarga teng yer maydoni o‘lchovi.



# Savol va topshiriqlar:



TILAME

- Turkistonda sovet avtonomiyasini tuzishdan ko‘zda tutilgan maqsad nima edi?
- Turkiston sovet avtonomiyasi mazmunan va mohiyatan nega mahalliy aholi- ning tub manfaatlariga javob berolmas edi?
- Turkkomissiya faoliyati haqida nimalar deya olasiz?
- Yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishdan kuzatilgan asosiy maqsadlarni bilasizmi?
- Turkistonda o‘tkazilgan yer-suv islohotining birinchi bosqichida nimalarga asosiy e’tibor qaratildi?